



## BOSHLANG'ICH SINIF "TEXNOLOGIYA" DARSLARI DAVOMIDA O'QUVCHILARNI DIZAYNERLIK KASBIGA YO'NALTIRISH

Ahmedova Mashhura Ulug'bek qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8267752>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-August 2023 yil

Ma'qullandi: 15-August 2023 yil

Nashr qilindi: 21-August 2023 yil

### KEY WORDS

dizaynerlik, grafika, interyer dizayner, landshaft dizayneri, modelyer-dizayner

### ABSTRACT

*mazkur maqolada dizaynerlik kasbi, uning tarixi, ichki turlariga oid ma'lumotlar keltirilgan. Boshlang'ich sinf "Texnologiya" darsliklarida berib o'tilgan, dizaynerlik kasbi unsurlaridan namunalar berilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari maqoladan ushbu sohaga doir nazariy ma'lumotlarni olishlari va undan dars jarayonida foydalanishlari mumkin.*

Dizayn (inglizcha: *design* — „loyiha“, „chizma“, „rasm“) — narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin. Dizayn faoliyati tarkibiga keng iste'mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, reklama va o'rov materiallari, ishlab chiqarish, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel va boshqalar kiradi. Dizayn XXasr boshlarida yuzaga kelib, 1930-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G'arbiy Yevropa va AQShda shakllandi. 1980-yil 2-yarmidan dizaynning faoliyat doirasi kengaydi. Dizaynerlar rassom sezgisi bilan birga ilmiy fanlar (masalan, materialshunoslik, rangshunoslik va boshqa)ga tayanadi, ishlab chiqarish jarayoni va sharoitlari, sotsiologiya va boshqa bilimlarga ega bo'lishi lozim. Dizayn sohasidagi mutaxassislar maxsus oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. Jumladan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ham interyerlar va sanoat grafikasi, libos dizayn bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Dizayn tafakkuri bu ko'nikmalar to'plamiga asoslangan muammolarni hal qilishning innovatsion jarayoni. Ushbu yondashuv bir necha o'n yillar davomida mavjud bo'lib, lekin u faqatgina 2008 yilgi Garvard Business Review jurnalining IDEO dizayn kompaniyasi rahbari va prezidenti Tim Braunning "Dizayn tafakkuri" nomli maqolasidan so'ng dizaynerlik jamiyatidan tashqarida o'z kuchini topa boshladi.

Yuqori darajada, dizaynni o'ylash jarayonida ishtirok etadigan qadamlar oddiy: birinchidan, muammoni to'liq anglash; ikkinchidan, mumkin bo'lgan yechimlarning keng doirasini o'rganish; uchinchidan, prototip yaratish va sinovdan o'tkazish orqali keng takrorlash; va nihoyat, odatiy joylashtirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Dizaynerlik kasbi ham vazifalariga ko'ra turlarga ajraydi:

- 1) Reklama va kompyuter grafikasi dizayneri – eng zamonaviy kasblardan biri bo'lib, u tashkilotlar yoki jismoniy shaxslarning buyurtmalariga ko'ra, kompyuter yordamida badiiy bezash ishlarini amalga oshiradi. U

matbuot nashrlarini, reklama mahsulot (qadoqlar, etiketka, buklet, vizitka, tovar belgilari va shunga o'xshash)larini, WEB-sahifalarni badiiy va texnik bezash loyihalarini ishlab chiqadi. Eskizlar va loyihalarni bevosita tashkilot rahbari yoki mijoz bilan kelishilgandan so'ng oxirgi grafik maketlarni tayyorlaydi. Reklama va kompyuter grafikasi dizayneri kasbi – yoshlarning, ayniqsa, kompyuter oldida soatlab o'tirib, turli animatsiyalar yaratishdan zavqlanadiganlarning asl orzusi. Sizda ham bunday istak yo'q emas, albatta. Agar bu kasbni egallashga astoydil kirishgan bo'lsangiz, birinchi navbatda buyurtma berilayotgan ishga nisbatan mijozning xohishlarini inobatga olishingizga to'g'ri keladi. Animatsiya va maketlarni kompyuterda ishlab chiqish, maket-eskizni mijoz bilan kelishish, zarur tuzatishlarni kiritish, sahifa dizaynerlari yoki badiiy redaktorlar tomonidan badiiy bezash ishlarini realizatsiya qilganda mualliflik huquqini nazorat qilish ham sizning zimmangizda bo'ladi. Shuningdek, badiiy bezash uslub va vositalarini, reklama, matbuot dizayni, web-dizaynning o'ziga xos jihatlarini, tasviriy san'at usullarini ham puxta o'zlashtirgan bo'lishingiz maqsadga muvofiq.

2) Landshaft dizayneri – bir vaqtda ham rassom, ham bog'bon, ham botanik, ham o'simlikshunos, ham arxitektorni o'zida mujassamlashtira olgan mutaxassisdir. Bir qarashda "yangi", zamonaviy kasbdek ko'rinadi. Lekin uning ildizlari uzoq o'tmishdagi shoh saroylarida, hashamatli hovlilarda, parklarda ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan shug'ullangan bog'bonlarga borib taqaladi. Bugungi kunda afsonaviy landschaft dizayneri deb, mashhur Versal parkining muallifi Andre Lenotr e'tirof etilgan.

Bunday kasb egalari o'simliklar, gullardan foydalanib kompozitsiyalar yaratish bilan shug'ullanadi. Fitodizayner o'simliklarning biologik muvofiqligi va ekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ofis, uylarni bezatishdan tortib, to umumxalq bayramlarini, turli marosimlarni loyihalashtirish, sun'iy gul dekoratsiyalarini yaratishga oid turli loyihalar bilan shug'ullanadi. O'z ishlarida tabiiy materiallardan: kesilgan gullar, quritilgan o'simliklardan foydalanadi.

Uning vazifalari xona ichidagi havoni chang, gaz va boshqa zararli aralashmalardan tozalash, o'simliklar bilan shahar shovqinini kamaytirish, havo muhitini yaxshilash, tinchlantiruvchi hidli o'simliklardan foydalanish, eng samarali va yaxshi o'sadigan o'simlik turlarini tanlash maqsadida o'simliklarning ichki qismidagi holatini o'rganib borish kabilardan iborat.

"Landschaft" so'zi "manzara", "manzarali yer" degan ma'nolarni bildiradi.

Fitodizayner – ko'kalamzorlashtirish, obodonchilik, bog' va parklarni, hovli va binolar oldini, tepaliklarni dekorativ o'simliklar bilan bezash, sun'iy suv havzalarini yaratish ishlarini bajaradi. Ular qurilish tashkilotlarida yoki o'z shaxsiy ofislarida ham faoliyat yuritishlari mumkin. Landschaft dizaynerlari asosan buyurtmachi va mijozlar bilan ishlashadi. Ular, birinchi navbatda, yaratilajak manzara uchun joyini borib ko'rishadi, loyihalashtiradi va landschaft-maketni tayyorlashadi. Joyning geografik va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda, qurilish materiallari va o'simliklarni tanlashadi.

Muhandislik tayyorgarlik ishlarini, ya'ni kommunikatsiya tizimi yaratilishini nazorat qiladi, hududdagi yo'lakchalarni yotqizish, suv havzalari va favvoralar o'rnatish, ko'kalamzorlashtirish singari qulayliklarni ta'minlaydi. Tayyor loyihani mijozga topshiradi.

Dizayner, bog'bondan farqli ravishda, o'simliklar parvarishi bilan shug'ullanmaydi va har doim ham ularni o'tqazmaydi, chunki bu bevosita bog'bonning vazifasiga kiradi. Shunday bo'lsa-da, dizayner o'simliklarni yaxshi "tushuna" olishi shart, ya'ni ularning tashqi

ko'rinishini yaxshi tasavvur qilib bilishi, nafaqat estetik jihatdan, balki gullash davri, oziqlantirish shartlari, yorug'likka va suvga ehtiyojini yaxshi o'rgangan bo'lishi lozim.

Landshaft dizaynerlari landshaft tarixi va nazariyasini, arxitektura nazariyasini, klassik usullarni, tasviriy san'at, chizma geometriyasi, chizmachilik asoslarini, qurilish bilan landshaft loyihaning uyg'unligini, ekologik bilimlarni, tuproqshunoslik, melioratsiya, dendrologiya ni, maxsus kompyuter dasturlarini yaxshi o'zlashtirmasdan turib, ishda ijobiy natijaga erishishlari – amrimahol. Ish hajmi va sarf-xarajatlarni ham oldindan hisob-kitob qilishlariga to'g'ri keladi. Eng asosiysi, siz tabiat va go'zallikni sevsangiz, eng zo'r landshaft dizayneri bo'la olasiz.

3) Me'moriy-dekorativ san'ati loyihalovchi dizayneri me'moriy konstruksiyalar rassom-dizayneri va ularni loyihalovchi-texnikni o'zida mujassamlashtirgan mutaxassis hisoblanadi.

Me'moriy-dekorativ san'at buyumlariga haykal, monument, yodgorlik, piramida, mavzoley, maqbara, qabr toshi, g'alaba arki (darvoza, kolonna) va shunga o'xshashlar kiradi.

Me'moriy-dekorativ inshootlar asosan, granit, mramor, gabbro, mramor kukunli sement va gipsdan tayyorlanadi.

Soha mutaxassisi, avvalambor, bo'lajak inshoot yoki buyumning asosiy mohiyatini anglab etishi, maket va eskizlarni ishlab chiqishi, konstruksiya uchun zarur materialni tanlab olishi hamda memorial konstruksiyani tayyorlashga kirishishi maqsadga muvofiq.

Aytaylik, sizda ijodiy qobiliyatlar mavjud va shu kasbning betakror, hamma orzu qiladigan ustasiga aylanmoqchisiz. Ishni me'moriy-dekorativ san'at turlarini va ularning yaratilish tarixini o'rganishdan boshlang.

Materialshunoslik, haykaltaroshlik va tasviriy san'at asoslari, me'moriy-dekorativ inshootlarni yaratish texnologiyalari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirmasdan maqsadga erishishning iloji yo'q, albatta. Ish jarayonida esa, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi me'yorlariga rioya qilish – o'zingizga foyda.

4) Modelyer-dizayner. Milliy, etnografik va badiiy liboslarning o'ziga xosligi qadimdan xalqlarning tabiiy yashash sharoitlari, turmush tarzi va an'alaridan kelib chiqqan. Milliy etnografik liboslarda o'ziga xoslik va originallikning uyg'unligi bois, ularga hamisha ehtiyoj yuqori bo'lgan va shunday bo'ladi.

Misol uchun, an'anaviy o'zbek milliy erkaklar libosi – qavilgan paxta solingan chopon, belbog', do'ppi(kallapo'sh) va yupqa teridan ishlangan etikdan iborat. Erkaklar to'g'ri bichimli ko'ylak kiyib yurishgan. Toshkent va Farg'ona viloyatlarida tugmalari qadalmaydigan xalat – yaxtak kiyish urf bo'lgan. Uni tabiiy tolali mato (paxta)dan tikishgan va chetlarini jiyaklar bilan bezashgan bo'lib, yoshlar ham, keksalar ham kiyishiga qulay bo'lgan. Bunday liboslarni keyinchalik boshqa viloyatlar erkaklari ham kiyishgan.

O'zbek ayollarining milliy libosi esa, ko'ylak vazifasini bajaruvchi, xonatlas yoki boshqa ipak tolali matodan tayyorlangan to'g'ri bichimli xalat, keng sharovar (pastki qismi ingichkalashib ketgan keng shim)dan iborat. Ularning bosh kiyimlari esa uch qismdan: qalpoq, ro'mol va salladan tashkil topgan. Eng ko'p tarqalgan va ommabop amaliy san'at buyumlaridan biri – do'ppi, ya'ni kallapo'sh bo'lib, ularni asosan ayollar tikishgan.

Hozirgi kunda milliy kiyimlarimizga nafaqat yurtimizda, balki chet ellarda ham qiziqish juda katta. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarning hech biri o'z yurtiga kamida bitta do'ppi olib ketishi odatga aylangan desak, xato emas. Ularni yaratish esa, haqiqiy san'at turiga aylangan. Do'ppilar hozir ham bizda keng urf bo'lgan milliy kiyim hisoblanadi.

Shahrisabzning gilami do'ppisi, Buxoroning zar do'ppisi, Farg'onaning chust do'ppisi, iroqi, duxoba va boshqa do'ppilar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Do'ppi nusxalari ichida eng mashhuri Chust do'ppilari bo'lib, qora atlas (yoki satin) ustiga ipak bilan qalampir yoki bodomgullar qo'lda tikib chiqiladi.

Milliy liboslarimizning nafaqat ko'rinishi yoki dizayni, balki ularning qanday mato va gazlamalardan tayyorlangani ham juda muhim. Namshoxi gazlamalar – beqasam, banoras va adras, atlaslar xalqimiz tomonidan e'zozlanadi. O'zbek xalqi ipak etishtirishda mohir bo'libgina qolmay, balki shohi atlaslarni to'qigan, ularni nihoyatda yuqori badiiy did bilan bo'yay olgan. Ipakdan to'qilgan to'rt, sakkiz, o'n ikki tepkili atlaslar va ulardan tikilgan liboslar bejizga jahonga mashhur bo'lmagan. Atlas gazmollar kompozitsiya jihatdan turli-tumandir. Hozirgi kunda uning yuzdan ortiq bezash turlari bor. O'zbek milliy, etnografik va badiiy liboslarini yaratishda zardo'zi liboslar ham muhim o'rin egallaydi, bu borada esa Buxoro zardo'z-dizaynerlarining ishlari tahsinga sazovor. Demak, milliy mato va gazlamalarning juda katta tanlovi milliy liboslarimiz dizaynerlari uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.


Agar siz zamonaviy milliy liboslar yaratuvchisi bo'lmoqchi bo'lsangiz, boshqa amaliy san'at turlari kabi, ishni eskiz va maketlarni tayyorlash, mos matolar va furnituralarni tanlashdan boshlang. Shu o'rinda qadimgi tillaqoshlarga zamonaviy ishlov berish studiyalari ham yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgani va u erdagi dizaynerlar ayollar liboslariga mos ravishda zamonaviy loyihalar, eskiz-maketlar asosida san'at asari darajasida tillaqoshlar tayyorlayotganliklari haqida aytishni joiz topdik.

Eng muhimi, sizda qobiliyat va xohish bo'lsa, sohaga doir bilimlarni o'zlashtirsangiz, sizga mamlakat va jahon miqyosida shoular hamda ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish baxti kulib boqishini tilab qolami

**Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun berilgan quyidagi mashqlar yordamida ushbu kasbga oid ma'lumotlarni berish va unga yo'naltirish, qiziqtirish mumkin:**

**1-sinf o'quvchilari uchun berilgan mashqlar:**

**TABIY MATERIALLARDAN FOYDALANIB SOAT YASASH  
VA UNGA BEZAK BERISH**



**2-sinf o'quvchilari uchun berilgan mashqlar:**

**Kerakli jihozlar:**

polimer stakan, polimer qoshiq, polimer naycha va qog'oz bo'laklari.

**Bajarilish tartibi:**


1. Ikki xil rangdagi polimer qoshiqchalarni skotch yordamida gul shakliga keltiring.
2. Polimer stakanlar tagiga karton joylashtirib, unga gul shaklini yelimlang.
3. Stakan ichini qog'oz parchalari bilan to'ldiring.



INNOVATIVE  
ACADEMY

**3-sinflar uchun berilgan mashqlar:**

Bayram tabriknomasi uchun yangicha dizayn yaratish:



Qalamdonga noodatiy ko'rinish yaratish:

**Kartondan quyuncha shaklidagi qalamdon tayyorlash**

**Kerakli jihozlar:** karton, qaychi, yelim, flomaster, doira shaklidagi g'altak, shayba, sirkul, chizg'ich.



Doira shakllarini sirkul yordamida chizib oling. Aylanalar diametrini teng qilib oling.



#### 4-sinf o'quvchilari uchun berilgan mashq:

Oddiy vositalardan bejirim ko'rinish hosil qilish:


Bir marta ishlatiladigan plastmassa qoshiqlardan gul shaklini yasab ko'ring.



Plastmassali qoshiqchalar rangini gullar rangiga moslab tanlang.

Kvilling san'ati ham estetik didni oshirish uchun qulay vosita bo'la oladi. Bu dizayner uchun muhim xususiyat hisoblanadi:

Kvilling ishlarini bajarishda ranglarni to'g'ri tanlang.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Texnologiya 1-sinf [Matn] : darslik / D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
2. Texnologiya 2-sinf [Matn] : darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.
3. Xamrakul Sanakulov, Dilfuza Abdiyeva Texnologiya 3-sinf [Matn] : darslik / X. R. Sanakulov, D. Abdiyeva – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 80 b
4. Texnologiya [Matn]: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik/ I.Manopova. D.Sayfurov. – T.: "O'qituvchi" NMIU 2020. – 112 b.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dizayn>
6. <http://kasbtanla.uz/soha/complete?id=18>